

**URUSH VA INSON: “SHINELLI YILLAR “ ROMANIDA
KONFLIKT VA DRAMATIZM MASALASI**

Begmurotova Oyxon To`lqinjon qizi

*Farg`ona Davlat universiteti Filologiya tillarni o`qitish o`zbek tili
yo`nalishi 4-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Shuhratning “Shinelli yillar” romanida konflikt va drammatizm masalasi badiiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asarda urush davri voqeliklari fonida yuzaga kelgan tashqi va ichki ziddiyatlar, qahramonlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklar hamda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to`qnashuvi yoritiladi. Konfliktning syujet rivojidadagi o`rni, dramatik vaziyatlarning yuzaga kelish mexanizmi va ularning qahramon xarakterini ochishdagi funksiyasi ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot davomida roman kompozitsiyasida drammatizmning kuchayish omillari hamda uning g`oyaviy-badiiy mazmuni chuqurlashtirishdagi ahamiyati aniqlanadi. Natijada “Shinelli yillar” asarida konflikt va drammatizm realizm tamoyillari asosida shakllangani xulosaga kelinadi.*

***Kalit so`zlar:** konflikt, drammatizm, badiiy ziddiyat, syujet, kompozitsiya, xarakter, ichki va tashqi konflikt, realizm, urush mavzusi.*

O`zbek adabiyotida urush mavzusi alohida o`rin tutadi. Ikkinchi jahon urushi yillari va uning inson taqdiriga ko`rsatgan ta`siri ko`plab ijodkorlar tomonidan turli badiiy shakllarda yoritilgan. Shuhratning “Shinelli yillar” romanida bosh qahramonlar orasida Vatan himoyasi yo`lida jonini fido qilgan askarlar, hamda urush dahshatining og`ir yukini ko`tarib yashagan kishilar tasvirlanadi. Muallif urushning nafaqat moddiy, balki ma`naviy yo`qotishlarini ham ochib beradi. Jang maydonidagi shavqatsiz to`qnashuvlar qahramonlarning matonatini sinovdan o`tkazgan bo`lsa, ortda qolga oilalar, onalar va farzandlar uchun bu yillar chidab

bo'lmis iztirob va sog'inch bilan kechgan.¹

Asarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy omillardan biri undagi konflikt va dramatism tizimidir. Badiiy asarda konflikt syujet harakatini ta'minlovchi yetakchi unsur bo'lib, u qahramon xarakterining shakllanishi va ochilishida muhim vazifa bajaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – romandagi ichki va tashqi konfliktlarning badiiy tabiatini ochib berish, dramatik vaziyatlarning syujet va kompozitsiyadagi o'rnini aniqlash hamda ularning g'oyaviy-estetik ahamiyatini asoslashdan iborat.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek asarda birgina bosh qahramon Elmurod obrazida ham tashqi ham ichki konfliktga duch kelamiz. Asardagi yana bir qahramon Murzin obrazi Elmurod obraziga qarama qarshi tarzda shakllantirilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Murzinning takabburligi, xudbinligi, mansabparastligi va shuning bilan birga bir nechta salbiy xarekteri bilan Elmuroddan yer bilan osmonchalik farq qilib turadi

Buning isboti sifatida asarning ohirgi qismlarida Murzin va Elmurod suhbatida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ichki konfliktga keladigan bo'lsak, bosh qahramon Elmurodning muhabbat borasidagi qalbini larzaga soluvchi muammolar, birinchi muhabbatning ayriliq iztiroblariyu ikkinchi muhabbatining fojeali yakun topishi shuning bilan birga birinchi mahubasini haliyam sevisish yo sevmasligi borasidagi ikkilanishlar kuchli bir ziddiyatni vujudga keltiradi.

Asardagi fojivaviy voqealar bayonini keltirishda yozuvchi mahorati yuksak o'rin egallaydi. Kitobxonni birinchi suyuntirib keyin qalbini larzaga soluvchi voqealarni keltirish kishini biroz o'yg'a to'ldiradi, asarni o'qish davomida o'quvchini yanada chuqurroq voqealar rivojiga kirib borishiga zamin yaratadi. Elmurod va Zeboning uzuq muddatdan keyin uchrashuvi va voqealar davomida Zeboning mudhish o'limi, yoki Anna va Turdiyev aka-singillarning topishishi va bu hursandchilik Turdiyevning mardlarcha vafoti bilan yakunlanishi voqealar rivojini yanada shiddatlashtirib yuboradi. Shuningdek asardagi kulminatsion nuqtalar bir

¹. Karimov.I.A “Yuksak ma'naviyat- yelgilmas kuch” –Toshkent.2008.

nechta: Elmurodning o`limi yolg`on bo`lib chiqishi, Turdiyevning aynan urush ketayotga bir paytda yillar davomida qidirib yurgan tug`ishgan singlisini topishi kabi voqealarni o`z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shuhratning “Shinelli yillar” romani konflikt va dramatism jihatidan puxta qurilgan badiiy asar sifatida o‘zbek urush adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, asarda konflikt voqealar rivojining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘lib, u qahramon xarakterining ochilishi va shakllanishida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Roman syujetida tashqi (ijtimoiy, harbiy sharoit bilan bog‘liq) va ichki (ruhiy, ma’naviy) konfliktlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda tasvirlangan.

Dramatism esa voqealar keskinligi, ruhiy ziddiyatlar va hayot-mamot masalalari orqali kuchaytirilib, asarning emotsional ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, qahramonlarning ma’naviy tanlovlari va ichki kurashlari dramatik vaziyatlarni yanada chuqurlashtiradi. Bu holat asarning realizm tamoyillariga asoslanganini va muallifning hayot haqiqatini badiiy haqqoniylik bilan ifodalashga intilganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, “Shinelli yillar” romanida konflikt va dramatism g‘oyaviy-badiiy mazmuni boyituvchi, syujet va kompozitsiyani mustahkamlovchi muhim estetik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Asarni mazkur nuqtayi nazardan o‘rganish uning badiiy qimmatini yanada teran anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat “Shinelli yillar”. –Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023
2. Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat- yelgilmas kuch” –Toshkent.2008.
3. Q.Yo`lchiyev. “Badiiy tahlil asoslari”. Farg`ona- 2023.